

**MADANIY MEROS OBYEKTLARINI ASRASH YUZASIDAN MUAMMOLAR VA  
YECHIMLAR TAHLILI.**

**Xo'janiyozov Shokir Rustamovich**

*Ilmiy rahbar: Urganch davlat universiteti Arxitektura kafedrasи dotsenti*

**Karimova Ro'zika Baxromovna**

*Urganch davlat universiteti Madaniy meros obyektlarini asrash yonalishi  
talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarixiy-madaniy obidalarning yo'qolib borishiga sabab bo'layotgan omillar tahlil qilinib tarixiy ko'rinishiga salbiy tasir ko'rsatayotgan noto'g'ri rekonstruksiya va restavratsiya ishlariga tanqidiy munosabat bildirilgan. Tarixiy obidalarimizni asrash borasida xalqaro miqyosda qabul qilingan hujjatlar va mamlakatimizda olib borilayotgan tizimli chora tadbirlar qanchalik o'z samarasini ko'rsatayotgani haqida fikrlar bayon qilingan va faktlar bilan boyitilgan.

**Kalit so'zlar.** madaniy meros, rekonstruksiya, restavratsiya, antropogen tasir, globallashuv, eroziya.

**Annotation:** In this article, the factors that cause the disappearance of historical cultural monuments are analyzed and a critical attitude is expressed to the wrong reconstruction and restoration works that have a negative effect on their historical appearance. Opinions about the effectiveness of the documents adopted at the international level regarding the preservation of our historical monuments and the systematic measures implemented in our country are expressed and enriched with facts.

**Key words.** cultural heritage, reconstruction, restoration, anthropogenic history, globalization, erosion.

**Kirish.** Malumki, tarixiy-madaniy yodgorliklar har bir xalqning, millatning xalqaro mavqeyini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Madaniy-meros yodgorliklarining xalq ma'navyati rivojlanishida o'rni kattadir. Jamiat ma'navyati birdan paydo bo'lmaydi, u kishilik taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli vujudga keladi. O'zbekiston Respublikasida 2001-yil 30-avgustda "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish" to'g'risidagi qonuni qabul qilindi. Usbu qonunning maqsadi o'zbek xalqining umummilliy boyligi bo'lmish madaniy meros obyektlarini himoya qilish va ulardan foydalanishdagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Prezidentimizning 2018-yil 19-dekabrdagi "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdab takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori sohada yangi bosqichni boshlab berdi. Bugungi kunda yurtimizda 8210 ta moddiy madaniy meros obyekti davlat muhofasasiga olingan. Bundan 4788 tasi arxeologik, 2265 tasi arxitekturaviy obyekt, 625 tasi monumental, 530 tasi diqqatga sazovar joylar hisoblanadi. Xalqlarning

ma’navyati yangidan yaratilmaydi, balki mavjud bo’lgan manaviy merosga tayanadi. Ma’navyat bizga yetib kelgan qadriyatlar, an’analar, tajribalar tufayli boyitiladi. Keljak avlod tarixni o’rganibgina keljakka nazar soladi va yashash tajribasiga ega bo’ladi. Shu bois tarixiy madaniy merosimizni zarar yetkazmasdan uzoq muddatga saqlab qolish butun millatning, insoniyatning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Muhokama. Tarixiy-madaniy meroslarning saqlanishiga xavf solayotgan omillar:

1. Tabiiy ta’sir: halokatli hodisalar, iqlim o’zgarishi, tabiiy ofatlar, eroziya.
2. Antropogen ta’sir: davlatlararo urushlar, qurolli to’qnashuvlar, davlat nazoratining yo’qligi, diniy va milliy nizolar, aholi soni ko’payishi.

**3. Ilimsizlik: Insonlar**

ma’navyati sayozligi, bilimsizlik, jaholatparastligi jahondagi ko’plab tarixiy-madaniy yodgorliklarning talon taroj qilinishiga va yo’q bo’lib ketishiga olib keladi.

Ma’lumotlarga ko’ra so’ngi vaqtarda madaniy meros obyektlarida amalga



osghirilayotgan tamirlash, restarvatsiya ishlari davomida buyurtmachi, pudratchi, loyihachi va ekspertiza tashkilotlari tononidan obyektlarning tarixiy va badiiy qimmatiga putur yetkazish holatlari kuzatilmogda. Masalan Buxoroda XX asr boshlarida qurilgan “Sitorai Mohi Xossa” (Amir Sayyid Olimxonning yozgi saroyi) saroyini restarvatsiya qilish ishlari noto’g’ri olib borilganligi tufayli saroyning bir qator qismi tarixiy va badiiy ahamyatini butkul yo’qotgan. Umumiyligi miqdorda 28 mldr so’mlik zarar yetkazilgan. Ushbu tarixiy majmuadagi restarvatsiya ishlari “Madaniy meros obyektlarini restarvatsiya qilish” talablariga zid ravishda olib borilgan. Maxsus ilmiy-ekspert kengashi bilan kelishilmagan, tegishli



ruxsatnomalar olinmagan va yana boshqa talablar qo’pol ravishda buzilgan. Bu kabi achinarli holatlarga hozirgi kunda ko’p duch kelyabmiz, mutaxasislarning fikiricha, ayni paytda 2500 ga yaqin arxitekturaviy yodgorliklarning ahvoli qoniqarli deb bo’lmaydi. Ayni paytda respublikamiz hududida 30 dan ortiq qazilma ishlari olib borilmoqda, ular tosh asridan to XVIII asrgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Aksaryat arxeologik

qazilmalar xorijlik olimlar homiyligida olib borilmoqda. Achinarlisi shuki, ko'plab kashf qilinayotgan yodgorliklar ikki yil o'tar-o'tmas qor-u yomg'ir ostida nurab ketayotganligi bois, ularni asrab qolish qadimshunoslar oldidagi kata muammoligicha qolyabdi. Ba'zi mutaxasislarning fikricha, to'laqonli qazishma ishlarini olib borishga respublika iqtisodiy, ilmiy imkonyatlari yetarli emas, hozircha "Tuproq ostidagi tarix" ni shundayligicha qoldirgan ma'qul.

XULOSA. Tarixiy-madaniy yodgorliklar insoniyatning rivojlanishida, manaviy kamolotga yetishida muhim ahamyatga ega. Yodgorliklarni restarvatsiya qilish va rekonstruksiya qilishning asosiy talablaridan biri uni asl ko'rinishda saqlab qolish hisoblanar ekan, bunda avvalo, yodgorliklarning barcha elementlari qurilish texnikasi va uslublarini aniq tasvirlashni talab qiladi. Hozirgi kunda olimlarimiz tomonidan yo'q bo'lib ketish ehtimoli kata bo'lgan yodgorliklarni uch o'lchovli virtual rekonstruksiyalari ham ishlab chiqilmoqda. Endilikda har bir qiziquvchi inson dunyoning istalgan tarixiy yodgorlikiga virtual sayohat qilishiga imkonyatiga egadir. Tarixiy-madaniy meros obyektlarini o'rganish orqali har bir inson o'z tarixi, an'anasi, urf-odatlari haqida kengroq ma'lumotga ega bo'ladi. O'zbek xalqining boy tarixi dunyo hamjamyatini ham befarq qoldirmayabdi, jumladan, YUNESKO ning yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarini muhofaza qilish xalqaro kengashi (ICOMOS), madaniy boyliklarni asrashva restarvatsiya qilish xalqaro tadqiqot markazi hamkorligida O'zbekiston madaniy merosini saqlashga oid 9 ta turli xil loyihalarni amalga oshirishda 700 ming AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://www.lex.uz>, <https://www.xs.uz> “Nomoddiy madaniy meros”

Z.U.Haydarov.

2. [https://www.cyberleninka.ru>article>/](https://www.cyberleninka.ru/article/) Tarixiy yodgorliklarni saqlash va qayta tiklashda 3D texnologiyasi ahamiyati.

3. <https://www.amerikaovozi.com/> O'zbekistonda tarixiy obidalarni asrash katta muammo.

4. <https://www.library.samdu.uz/> Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash.